

## **SPORT ESTETIKASI**

*Abrorova Dildora Normurod qizi*

*Alfrangus universiteti Sport faoliyati yo'nalishi magistr talabasi*

*Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich*

*Alfrangus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti.falsafa fanlari doktori*

*(PhD) juraev.1982@ mail.ru*

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola jismoniy tarbiya va sportda estetikaning mohiyati borasida fikrlar keltirilgan bo'lib, unda estetik tarbiya jismoniy tarbiya va sport sohasi bilan hamohang tarzda shaxs ongida shakllantirishga yo'naltirilgan izohlar berilgan. Sport estetikasining yoshlar ongida qanday shakllanishi va uni rivojlantirishning usullar haqida ham fikrlar keltirilgan. Sport estetikasi haqida olimlarning dunyoqarashlari va nazariyasi ham ko'rishingiz mumkin.

**KALIT SO'ZLAR:** sport, estetika, jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy kamolot

Sport - bu musobaqa jarayonida namoyon bo'ladigan u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatdir. Hozirgi paytda sport jahon bo'ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinadi. Ayniqsa, buni O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi, o'zbek kurashi esa umumbashariy sport turi maqomini oldi, maxsus Madaniyat va sport vazirligi tashkil etildi. Bularning deyarli barchasi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va nazorati ostida amalga oshirildi. SHu tufayli bugun O'zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go'zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi.

Moddiy boyliklarga sport inshootlari, stadionlar, sport zallari, basseyn, kortlar, jismoniy tarbiya jihozlari, maxsus kiyim, poyabzal, shuningdek, sport sohasida erishilgan yutuqlar, ya'ni kamolot darajasi kiradi. Ma'naviy boyliklarga jismoniy tarbiya haqidagi fan, san'at asarlari, adabiyot, haykaltaroshlik, rang-tasvir, musiqa va boshqalar kiradi. Shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun sport turlarining ahamiyati katta. Sport, avvalo, chiniqtiradi, tarbiyalaydi, shu bilan birga, go'zallikka va ezgulikka chorlaydi. Chempionlar millionlab muxlislar oldida ajoyib kombinatsiyalar yaratadilar. Shu bilan birga, estetik zavq uyg'otadilar. Sportning estetik turlari figurali uchish, badiiy gimnastika, sinxron suzish, ot sporti, qilichbozlik va boshqalardir. Bu sport turlari mohiyati jihatidan san'at darajasida ijro etiladi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Yoshlarimiz jahon arenalarida O'zbekiston san'atini dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda. O'zbekiston bayrog'i Yer sharining deyarli har yerida baland ko'tarilmoqda.

O'yinni Qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanini ta'kidlab, uni san'at bilan tenglashtirganlar, SHiller esa, ko'rib o'tganimizdek, badiiy faoliyatni o'yinning eng yuksak shakli deb hisoblaydi. Sport esa, eng avvalo o'yin. Undan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o'yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafkash sifatida. Bunda tomoshabin san'atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg'unlashib, uning xatti-harakatlariga qo'shilib ketadi, ayni paytda o'zi sportchi emasligini, ya'ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o'zining "Sport go'zalligi" degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Teatr, – deb yozadi F.Kinon, – tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san'at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz "o'yin" haqida gapiramiz"<sup>6</sup>. Boshqa bir o'rinda B.Lou H.Slyusherning "Sport va ekzistensiya" kitobidagi quyidagi satrlarga e'tiborni qaratadi: "Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma'noga

boy holat... sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko'tarinkilikni talab qiladi, – deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida<sup>7</sup>.

Sport estetikasi deganda, inson harakati go'zalligi va ulug'vorligini estetik anglab yetish tushuniladi. Sport estetikasining rivojlanish jarayonlari insonning ma'naviy va jismoniy yetuklik uyg'unligining in'ikosidir. Bunda insonda jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy kamolot, jismoniy ta'lim, jismoniy madaniyat kabi bosqichlar kuzatiladi.

Jismoniy rivojlanish - kishi organizmi shakli va funksiyalarining o'zgarish jarayoni bo'lib, asosan, antropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi. Ya'ni, bo'y, gavda og'irligi, qaddi-qomati, o'pkalarning tiriklik sig'imi, shuningdek, tezkorlik, epcillik, egiluvchanlik, kuch-chidamlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tayyorgarlik - bu harakat ko'nikmalari malakalari, jismoniy sifatlarining sport razryadlari va unvonlar, talab va me'yorlar bilan belgilanadigan rivojlanish darajasidir.

Jismoniy kamolot - bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog'liqning, hayotga, mehnatga, vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori bosqichidir.

Jismoniy madaniyat - umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining majmuiasidir.

Nafosatii tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka nafosatdor munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, u o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yuniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko'lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qobiliyatni o'stirish ayni paytda nafosatii tarbiva vositalarining muhim vazifasi sanaladi. nafosatii tarbiva 1, nafosaili tarbiya vositalari ikke vil SHunga ko'ra, natosanii tarbiya vositalari ikki xil hususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, u voqelikda sodir bo'layotgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni insonga tushunarli tarzda yetkazishi bilan. Ikkinchidan, zamonaviy

fanlarning nafosatli hususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida yetkazib berishi bilan diqqatga sazovordir. Shunga ko'ra, san'at, tabiat, urf-odatlar, mehnat, ommaviy axborot vositalari, sport nafosatli tarbiyani shakllantiruvchi hamda uning rivojlanishiga ko'mak beruvchi asosiy vositalar sifatida e'tirof etiladi.

Jumladan, mehnat ham moddiy, hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan nafosatli tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoly-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. Qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hamdir. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi-ijtimoly yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda mehnatga bo'lgan yangicha tuyg'uni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik xissiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnaæga bo'lgan munosaba orqali rivojlanib boradi. Negaki, odamlarda ko'p ukladit, turli mulk tizimlarini barpo etishga bo'lgan rag'bat tarbiyasi insonni bir tomonlama fikrlashdan, boqimandachilik kayfiyatlaridan halos qilib, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, odamning o'z kuchi va salohiyatiga suyanishini kuchaytiradi, mehnatga hurmat, sadoqat va fidolylik tuyg'ularini shakllantiradi. Bu pirovardida halq turmush darajasining o'sishiga olib keladi. Mehnatga bo'lgan yangicha munosabat o'zining ana shunday hususiyatlariga ega ekanligi bilan nafosaili tarbiyaning muhim vositasi bo'lib sanaladi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari inson nafosatii tarbiyasiga yaqindan ta'sir qiluvchi qudratli va faol kuchdir. Ayniqsa, televidenie shaxs hamda ommant etetik dunyoqarashini shakllantirishda, ulami nafosatli jihatdan tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etadi. Rang-barang mavzulardagi ko'rsatuvlar hadily va hujjatli filmlar, ijtimoiy ma'naviy mazmundagi reklamalar, telemarafonlar nafosatli tarbiyani maqsadli maqsadli yo'nalurishda, yo'naltirishda insonlar tafakkurida go'zallikka bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirishda salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda milliy g'oya va milliy mafkura hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, har bir inson jamiyatda o'z o'mini bilishi, o'zini Jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishini anglamondamiz. Tarbiyaning nafosatli shakli esa mazkur Jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, Jamiyat ma'naviy rivojidagi yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p ko'p masalalardan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyaming qiralmas qismi deb his qilishi lozim. Zero, bugungi kunning talabi ana shundan iborat. Mazkur talabgo javob berish esa insondan har tomonlama tarbiyalanganlikni talab qiladi. Tarbiyaning nafosarli shakli esa mazkur jarayonlarda insanni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, toblatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, Jamiyatga bo'lgan qarashlarini go'zallik va ulug vorlik asosida tarbiya qilishi bilan diqqatga sazovordir.

Milliy ma'naviyanga ta'sir o'tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'kidlash o'rinlad, estetik niqobi ostida turli xil ko'rinishdagi "sog'lom turmush tarzi targ'ibotchilari", "ko'ngilochar" va "musafjo uyg'u" baxsh etuvchi sayilar tolaygina. Eng dahshatlisi keyingi paydanda internet tarmog'i vampirizm estetikasi va uning targ'iboti bilan bog'liq sayilaming ko'payib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Bu targ'ibot saytlami oddiygina qidiruv buyrug'i orqali topish mushicul emas. Bunday tahdidlarga qarshi go'zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni

yaratish orqali kurashishni zamon talab etmoqdaki, bu yoshlarni ma'naviy jihardan yuksaltirishda estetik tarbiyaga zaruriyat mavjudligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda milliy g'oya va milliy mafkura hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini Jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishini anglamoqdamiz. Torblyaning nafosatli shakli esa markur jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, bodily adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma'naviy rivojidadagi yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. -53 h.

2 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. -484 b. Qonun ustuvorligi va lason manfaatlarini ta'minlash-yurt

3 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va lason taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: 2017.-28 b

4 Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Olly Majlisi deputatlariga Murojaati// Xalq so'zi -2017 yil 22 dekabr.

5 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahill, qat'iy tarilb Intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T O'zbekiston, 2017-104 b.

6 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimiza mard va olijanob xalqimiz bilan birgaquramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2018. -488 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga kutaramiz. 1-tom. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018-5926

8 Karimov L.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar. -T.: O'zbekiston, 1996-2016.